

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

X.M.Shermatova, G.A.Karaboyeva	
Zamonaviy axborot texnologiyalarining yosh avlod tarbiyasiga psixologik ta'siri tahlili.....	141
I.T.Tojiboev, Z.X.Komilova	
Professional ta'lim muassasalarida dasturlash tillarini o'qitishning zamonaviy usullari	145
Z.X.Mamatova	
Zamonaviy informatika mashg'ulotlariga qo'yilayotgan metodik talablarni takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik omillari.....	151
A.Y.Axmedov, Z.F.Sherqo'ziyeva	
Ta'lim samaradorligini oshirishda innovatsion va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish	156
B.B.Djalalov	
Interfaol o'qitish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda innovatsion kompetentlikni shakllantirishning pedagogik tizimi.....	160
B.S.Siddiqov	
O'quvchilarda aksiologik kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlari.....	165
D.A.Yo'ldosheva	
Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarning kreativ kompetentligini rivojlantirish zamonaviy pedagogikada zaruriyat sifatida	170
I.I.Tuychiyeva, Z.Axunova	
Yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati....	174
J.U.Tojiboyev	
Talabalarning badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirish texnologiyasi	178
M.O.Karimova, X.X.Tojiyev	
Bo'lajak chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik tayyorgarligini rivojlantirish muammosi	183
H.A.Абдуллаева	
Педагогические проблемы формирования исследовательских компетенций будущих учителей.....	190
N.S.Temirov	
Oliy o'quv yurtida mustaqil ta'lim orqali talabalar bilimini oshirishning zamonaviy yondashuvlari	194
O.F.Hamrayeva	
Talabalarda irodaviy sifatlarni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari.	199
Sh.O.Aripov	
Xorij olimlarining o'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlash jarayonida gender yondashuvni tadbiq etishga doir fikirlari	204
Sh.N.Mehmonaliyev	
Koshifiyning adabiy-pedagogik merosi va uning yoshlarning ma'naviy ahloqiy qadriyatlar tizimiga ta'siri.	208
U.Q.Maqsudov	
Modernizatsiyalash sharoitlarida talabalarning kasbiy dunyoqarashni shakllantirish imkoniyatlari.....	212
O.N.Fozilova	
Maktabgacha ta'limda xorijiy mamlakatlar tajribasi (Buyuk Britaniya)	217
M.E.Xallokova	
Bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda o'yin texnologiyasining faollashtiruvchi omillari.....	222
I.S.Soliyev	
Maktabgacha ta'lim tarbiyachilarining axborot kompetentligini rivojlantirishning tashkiliy omillari	227
F.O.O'rinova	
Bo'lajak o'qituvchilarda intellektual kompetentlikni rivojlantirish zarurati va ijtimoiy ahamiyati	232
R.Y.O'rinov	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining intellektual faolligini oshirishning integrativ texnologiyalari.....	238



UO'K: 37.015.3:159.95

TALABALARDA IRODAVIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ ОСОБЕННОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КАЧЕСТВ У СТУДЕНТОВ****PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE FORMATION OF VOCATIONAL QUALITIES IN STUDENTS****Hamrayeva Oynisa Farxod qizi**

Farg'ona davlat universiteti, Pedagogika kafedrası o'qituvchisi.

Annotatsiya

Mazkur maqolada iroda haqida tushuncha va irodaviy sifatlarning mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari hamda talabalarda irodaviy sifatlarning shakllanish jarayonlari, shuningdek, mehnat qilish, mehnatni qadrlash, o'z o'zini boshqarishga tasirini ularning pedagogik va psixologik jarayonlari va iroda tushunchasining ilmiy nazariyalari haqida keng ma'lumotlar berilib o'tilgan. Jahonda irodaviy faollikni rivojlantirish masalasi shaxs kamolotini ta'minlovchi omil sifatida e'tirof etilmoqda. Darhaqiqat, insonning har qanday faoliyatda iroda yetakchi o'rin egallaydi. Shu jihatdan bugungi kunda yoshlarni irodali, mas'uliyatli, tirishqoq, dovyurak qilib tarbiyalashga e'tibor ortib bormoqda. Bu borada psixologik tajribalar doirasida, shaxslilik xususiyatlar bilan irodaviy faollik o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish borasidagi ilmiy tadqiqotlarning amalga oshirilishi kuzatilmoqda. Shaxsning irodaviy sifatlari baholash, ularda aqliy va ixtiyoriy boshqaruvning tarkib topishi, o'zini o'zi nazorat qilish, irodaviy faollik va shaxslilik xususiyatlarining o'zaro mutanosibligini tahlil qilish, psixologik tadqiqotlarning o'ziga xos muhim yo'nalishi sanaladi. Shuningdek shaxsning irodaviy sifatlari rivojlanishida turli omillarning ta'sirini aniqlash, ular xulqidagi hissiy-irodaviy nomutanosiblikni korrektsiya qilish dolzarb muammolar sifatida qaralmoqda. Shu munosabat bilan yurtimizda o'sib borayotgan yoshlarning ijtimoiy faolligini ta'minlashga, ularning tashabbuskorligini yuksaltirishga, tanqidiy tahlil, intizomlilik, vatanparvarlik, shaxsiy javobgarlik tuyg'ularini shakllantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Iroda muammosini bugungi kunda dolzarbligini inobatga olib tadqiqotlarimizni oliy ta'lim muassasalari talabalarining irodaviy faolligini vaziyatli va shaxslilik xususiyatlari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishga qaratdik. Bizning asosiy maqsadimiz talabalarda irodaning namoyon bo'lishi va shaxslilik xususiyatlar bilan bog'liqlik jihatlari aniqlab olishdan iborat edi. Shu munosabat bilan talabalarda irodaviy sifatlarni o'rganish muammosiga yondashishda dastlab yuqorida bayon etilgan xususiyatning tarkibini aniqlab olish, shuningdek ularda irodaviy sifatlarning qaysi shkalasi ustunligini va jinsiy tafovutlarni aniqlashga harakat qildik.

Аннотация

В данной статье рассматриваются понятие воли и природа волевых качеств, их специфика и процессы формирования волевых качеств у студентов, а также их влияние на труд, оценку труда, самоуправление, их педагогическое и предоставляются обширные сведения о психологических процессах и научных теориях концепции воли. В мире вопрос развития произвольной активности признан фактором, обеспечивающим развитие личности. Фактически воля занимает ведущее место в любой деятельности человека. В связи с этим сегодня уделяется внимание воспитанию молодежи волевыми, ответственными, трудолюбивыми и смелыми. В связи с этим в рамках психологических экспериментов наблюдается реализация научных исследований о взаимосвязи свойств личности и волевой деятельности. Оценка волевых качеств человека, содержания психического и произвольного контроля, самоконтроля, волевой деятельности и анализ взаимосвязи свойств личности считаются особо важным направлением психологических исследований. Также актуальными проблемами считаются определение влияния различных факторов на развитие волевых качеств личности, коррекция эмоционально-волевой неравновесности в ее поведении, особое внимание уделяется формированию чувства личной ответственности. Учитывая актуальность проблемы воли на сегодняшний день, мы сосредоточили свое исследование на взаимосвязи ситуативных и личностных особенностей волевой деятельности студентов высших учебных заведений. Нашей основной целью было определить аспекты связи с проявлением воли и личностных качеств учащихся. В связи с этим, подходя к проблеме изучения волевых качеств у студентов, мы прежде всего попытались определить состав указанной характеристики, а также определить, какая шкала волевых качеств у них преобладает и гендерные различия.

Abstract

In this article, the concept of will and the essence of will qualities, their specific characteristics, and the processes of formation of will qualities in students, as well as their effect on work, appreciation of work, self-management, their pedagogical and psychological processes, and scientific theories of the concept of will extensive

information is provided. In the world, the issue of developing voluntary activity is recognized as a factor that ensures personal development. In fact, the will takes the leading place in any human activity. In this regard, today, attention is being paid to raising young people to be strong-willed, responsible, hardworking and courageous. In this regard, within the framework of psychological experiments, the implementation of scientific research on the relationship between personality traits and volitional activity is being observed. Assessment of the willful qualities of a person, the content of mental and voluntary control, self-control, volitional activity and the analysis of the interrelationship of personality traits are considered to be a particularly important direction of psychological research. Also, determining the influence of various factors on the development of the individual's volitional qualities, correcting the emotional-volitional disequilibrium in their behavior are considered as urgent problems. , special attention is paid to the formation of feelings of personal responsibility. Taking into account the relevance of the problem of will today, we focused our research on the relationship between the situational and personality characteristics of the will activity of students of higher educational institutions. Our main goal was to determine the aspects of connection with the manifestation of will and personality traits in students. In this regard, when approaching the problem of studying volitional qualities in students, we first tried to determine the composition of the above-mentioned characteristic, as well as to determine which scale of volitional qualities prevails in them and gender differences.

Kalit so'zlar: Iroda, irodaviy xususiyatlar, yoshlar irodasi, sobitqadamlik, qat'iyat, ishonch, irodasizlik, ta'lim, tarbiya, o'quv jarayoni ahamiyati, iroda buzilishlari, o'z o'zini boshqarish, dadillik qat'iylik chidam, toqat, prinsipial, kuch, xislat, fazilat, saviya, ikkilanish, xarakter.

Ключевые слова: Воля, волевые характеристики, воля молодых людей, стойкость, целеустремленность, уверенность, безволие, воспитание, обучение, значение образовательного процесса, расстройств воли, самообладание, смелость, целеустремленность, выдержка, толерантность, принципиальность. , сила, характер, добродетель, уровень, двойственность, характер.

Key words: Will, volitional characteristics, will of young people, steadfastness, determination, confidence, lack of will, education, training, the importance of the educational process, will disorders, self-control, courage, determination, endurance, tolerance, principle, strength, character, virtue, level, duality, character.

KIRISH

Mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalarga muvofiq kadrlar tayyorlashning mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashga zarur shart-sharoitlar yaratish dolzarblik kasb etmoqda. Mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalarga muvofiq kadrlar tayyorlashning mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashga zarur shart-sharoitlar yaratish dolzarblik kasb etmoqda. Ilm-fanni rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son qarori qabul qilindi. Pedagogika va psixologiyaga oid bilimlarni egallash insonni o'ziga xos xususiyatlar haqidagi tasavvurlarni yaxlit shakllantirish, mustaqil fikrlash va shaxsiy xatti-harakatlari oqibatlarini oldindan sezish, mustaqil o'qish va o'z imkoniyatlarini aynan baholash, maqsadga erishish va hayotiy qiyinchiliklarni bartaraf etishning maqbul yo'llarini mustaqil topish bo'yicha pedagogik va psixologik bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Prezident Sh.M.Mirziyoyev ham "Oldimizga yoshlarga tarbiya berish, psixologiya va boshqa turli sohalarda kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha murakkab vazifalar turibdi"[7] deya jamiyatimiz hayotida ro'y berayotgan barcha o'zgarishlarning pedagogik-psixologik mohiyatini bo'lg'usi mutaxassislar tomonidan o'zlashtirilishiga ko'mak beruvchi ilmiy manbalarning ahamiyatini yana bir marotaba ta'kidlab o'tdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Iroda bu kishining o'z xulqi va faoliyatini ongli ravishda boshqarish, maqsadga yo'naltirilgan xatti-harakat va xulq-atvorining amalga oshishida tashqi, ichki qiyinchiliklarni yengib o'tishga qaratilgan jarayonlar. Prezident Sh.M.Mirziyoyev ham "Oldimizga yoshlarga tarbiya berish, psixologiya va boshqa turli sohalarda kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha murakkab vazifalar turibdi". Professor E.G'oziyevning "Umumiy psixologiya" darsligida iroda – bu tashqi va ichki qiyinchiliklarni yengishni talab qiladigan qiliqlarni va harakatlarni inson tomonidan ongli boshqarilishidir, deb keltiriladi.

Iroda bu kishining o'z xulqi va faoliyatini ongli ravishda boshqarish, maqsadga yo'naltirilgan xatti-harakat va xulq-atvorining amalga oshishida tashqi, ichki qiyinchiliklarni yengib o'tishga qaratilgan jarayonlar. Iroda tufayli inson o'z faoliyatini ongli boshqaradi, maqsad qo'yadi, maqsadni amalga oshirish mobaynida uchraydigan to'siqlarni, qiyinchiliklarni yengishga harakat qiladi.

⁷ Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatning kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T., 2017. –B. 45.

PEDAGOGIKA

Psixologik tadqiqotlarni ko'rsatishicha, irodaviy sifatlarning 300 ga yaqin turi mavjud. Irodaviy sifatlarni bir qancha⁸ komponentlari mavjud bo'lib, ular quyidagilar: istak, maqsad, xohish, ichki qiyinchiliklarni yengish, bajarilgan ishga baho berish kabilardir. A.V.Petrovskiy darsligida iroda – bu kishining o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishda qiyinchiliklarni yengib o'tishga qaratilgan faoliyati va xulq-atvorini ongli ravishda tashkil qilishi va o'z-o'zini boshqarishi demakdir, deb ta'riflanadi. Q.Turg'unov muallifligidagi lug'atda ta'riflanishicha, iroda – shaxsning ongli harakatlarida, o'z-o'zini bilishida ifodalanadigan, ayniqsa, maqsadga erishish yo'lida uchraydigan jismoniy va ruhiy qiyinchiliklarni yengib chiqishda namoyon bo'ladigan ixtiyoriy faolligidir. M.Vohidov fikricha, iroda deganda biz oldindan belgilagan, qat'iy bir maqsad asosida amalga oshiriladigan va ayrim qiyinchiliklarni, to'siqlarni yengish bilan bog'liq bo'lgan harakatlarni tushunamiz. Professor E.G'oziyevning "Umumiy psixologiya"⁹ darsligida iroda – bu tashqi va ichki qiyinchiliklarni yengishni talab qiladigan qiliqlarni va harakatlarni inson tomonidan ongli boshqarilishidir, deb keltiriladi. Umuman olganda, iroda shaxs faolligining ko'rinishi hisoblanadi. Shu bois uning yuzaga kelishi bir qator harakatlarni amalga oshirilishi bilan izohlanadi. Har qanday inson faoliyati doimo ikkita katta guruhga bo'linadigan aniq harakatlar bilan birga keladi: ixtiyoriy va ixtiyorsiz. Ixtiyoriy harakatlarning asosiy farqi shundaki, ular ong nazorati ostida amalga oshiriladi va shaxsdan ongli ravishda belgilangan maqsadga erishishga qaratilgan muayyan harakatlarni talab qiladi. Xulq-atvorni tartibga solishga qaratilgan ongning harakatlari tufayli barcha individual harakatlar bir butunga birlashadi va odam suv ichadi. Bu harakat ko'pincha iroda bilan ixtiyoriy tartibga solish, deb ataladi. Irodaning asosiy vazifasi hayotning qiyin sharoitlarida faoliyatni ongli ravishda tartibga solishdir. Bu tartibga solish qo'zg'alish jarayonlarining o'zaro ta'siriga asoslanadigan asab tizimidir.

Iroda kuchi irodaning muhim sifatidir. Iroda kuchining turli darajasi irodaviy jarayonning hamma bosqichlarida ko'rinadi. Iroda kuchi avvalo ehtiyojlarni his qilishda va intilishga urinishda ko'rinadi. Talabalarni yoshi davrida irodaviy sifatlarni negizida iroda kuchining ta'sirini qay darajada muhimligini aniqlash yotadi. Shuning uchun talabalarda iroda kuchining namoyon bo'lishi ularda irodaning salbiy va ijobiy sifatlarini tarkib topishiga xizmat qiladi. Shuningdek, bunday holatning namoyon bo'lishi ulardagi iroda kuchi va uning yo'nalganlik darajasi bilan ham uzviy bog'liq bo'lishi mumkin.

Inson irodasi ma'lum fazilatlar bilan tavsiflanadi. Avvalo, irodani maqsadga erishish yo'lida yuzaga keladigan muhim qiyinchiliklarni yengishning umumlashirilgan qobiliyati sifatida ajratish odatiy holdir. Maqsadingizga erishish yo'lidagi to'siq qanchalik jiddiy bo'lsa, irodangiz shunchalik kuchli bo'ladi. Aynan iroda kuchi bilan yengib o'tiladigan to'siqlar irodaning namoyon bo'lishining ob'ektiv ko'rsatkichidir. Kishining xarakterini ta'riflaganimizda, falon kishi dadillik qiladi, rost gapiradi, demasdan balki, bu odam dadil, rostgo'y, to'g'riso'z deb ataymiz. Buning ma'nosi shuki, dadillik va rostgo'ylik, to'g'riso'zlik shu odamning xususiyatlari yoki xarakter xislatlaridir, tegishli sharoitda bu kishi dadillik, rostgo'ylik, to'g'riso'zlik xislatlariga ega ekanligini namoyon qildi deb ayta olamiz. Kishi xarakteri xislatlarini bilib olgach, uning biror ish-harakatda qanday yo'l tutishini ancha aniq bilib, oldindan aytib bera olamiz.

Iroda ma'lum kuch bilan yuzaga chiqadi, ba'zi hollarda kishining irodasi kuchli sur'atda namoyon bo'lsa, boshqa hollarda kuchsiz namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham iroda kuchi irodaning muhim sifatidir deyiladi. Iroda kuchining turli darajasi irodaviy jarayonning hamma bosqichlarida ko'rinadi. Iroda kuchi ravshan va aniq maqsadni belgilashda shuningdek, mazkur maqsadga yetishishga yordam beradigan yo'l, vosita va usullarni ochiq tasavvur etiladi.

Yuqoridagi umumiy funksiyaning spetsifikatsiyasi sifatida yana ikkita funksiyani ajratib ko'rsatish odatiy holdir – faollashtiruvchi va ingibitiv. Shuni ta'kidlash kerakki, to'siqni yengib o'tishga qaratilgan har bir harakat ixtiyoriy emas. Masalan, itdan qochgan odam juda qiyin to'siqlarni yengib o'tishi va hatto baland daraxtga chiqishi mumkin, ammo bu harakatlar ixtiyoriy emas, chunki ular birinchi navbatda tashqi sabablar insonning ichki munosabatlaridan ko'ra. Shunday qilib, to'siqlarni yengib o'tishga qaratilgan ixtiyoriy harakatlarning eng muhim xususiyati – bu kurashish kerak bo'lgan maqsadning ahamiyatini anglash, unga erishish zarurligini anglashdir. Inson uchun maqsad qanchalik muhim bo'lsa, u shunchalik ko'p to'siqlarni yengadi. Shuning uchun ixtiyoriy harakatlar nafaqat murakkablik darajasi, balki xabardorlik darajasi bilan ham farq qilishi

⁸ file:///C:/Users/User/Downloads/mamun-2023-1-26.pdf

⁹ E.G'oziyev Umumiy psixologiya darslik I-kitob. Toshkent. "Universitet" 2022

mumkin. Talabalar o'quv faoliyati muvaffaqiyatining muhim sharti oliy o'quv yurtidagi ta'lim jarayonining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, diskomfort, (noqulay, nohush) tuyg'usini bartaraf qilish, mikromuhitda yuz beradigan ziddiyatlarning oldini olishdan iboratdir. Insonning o'z faoliyati va xulq-atvorini shaxsiy xohish-irodasiga bo'ysundirish, ro'yobga chiqarish, mustaqil fikrlashni barqarorlashtirish ko'zlangan maqsadni amalga oshirishga puxta zamin hozirlaydi. Talabalar irodasi, avvalo, ularning ijtimoiy faoliyatida, mehnat faoliyatida, ijtimoiy tajribasida va ta'lim jarayonida namoyon bo'ladi. Yoshlarimizda irodaning bir qancha sifatleri ko'zga tashlanadi. Bular: qat'iyatlilik, tashabbuskorlik, dadillik, mustaqillik, tejamkorlik, intizomlilik, tirishqoqlik, javobgarlilik, jasoratlilik, ishonch kabilar.

Bugungi kunda yoshlarimizning bilim olishga ehtiyojining kuchayishi ulardagi aqliy salohiyati o'sishi ko'p jihatdan ularning irodaviy bo'lishini talab etadi. Chunki, iroda tufayli inson biron-bir maqsad asosida ko'zlangan ishini, xatti-harakatlarini bajarishga intiladi. Ta'lim jarayonida o'quvchi yoshlarda irodaviy sifatlarni tarbiyalash, ularni o'quv faoliyatlarida duch keladigan to'siq va qiyinchiliklarni yengishga o'rgatish ta'lim jarayonini muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Bilimlarni egallashdagi sobitqadamlilik – bosh irodaviy sifat, xislat hisoblanib, u¹⁰ irodaning boshqa ko'rinishlarining taraqqiyot darajasini va o'sishini aniqlovchi asosiy omil bo'lib sanaladi. Mustaqil va kelajagi buyuk davlat ideallariga sodiqlik, vatan oldidagi burchlik yuksak darajada anglash jamoatchilik hissi, yurt ravnaqiga o'z hissasini qo'shishi istagi – bularning barchasi o'zbek xalqiga xos bo'lgan sobitqadamlilik namunasidir. Ta'lim-tarbiya jarayonidagi tashabbuskorlik talabaning o'z xohishini amalga qo'llash o'quvchida mustaqil bilim olish va fikrlash¹¹dagi qat'iyatlilik – talaba yoshlar tomonidan jiddiy qaror qabul qilish, uni¹² izchil hayotga tatbiq etish hislati sanaladi. Tirishqoqlik talaba yoshlarning qiyinchiliklarni yengish uchun kurashida sir va izoh hujjat maqsadiga erishish uchun intilish ko'nikmasi hisoblanadi. Talabalarda irodaviy harakatning bajarilishida uning dastlabki qadami, irodaga bag'ishlangan ko'pgina psixologik adabiyotlarda maqsad qo'yish deb beriladi. Maqsad deganda, P.I.Ivanov, odamning nima ish qilishi kerakligini, nimaga erishishi kerakligini va qanday qiyinchiliklarni yengib o'tishi lozimligini anglab etishni tushunishga diqqatni qaratadi. Shuningdek, irodaviy harakat bosqichlari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tadi: – harakat maqsadini belgilash; – maqsad va vositalarni belgilash; – qarorga kelish; – qarorni ijro etish; – ichki qarshiliklarni engish; – tashqi qarshiliklarni engish; – bajarilgan ishga baho berish. Ushbu bosqichlar bajarilishida ketma-ketlik ko'rinishini olib, har biri o'ziga xos tizimlilikni tashkil etadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Olingan natijalarga ko'ra, 26% (15-16 yosh) va 23% (17-18 yosh) sinaluvchilar guruhida irodaviy sifatlarning shakllanganligi past darajani tashkil qildi. Bunga sabab sifatida quyidagi holatlarni keltirish mumkin: talaba tomonidan o'zlashtirilgan ijtimoiy tajribalarning murakkabligi va boyligi; erishilgan muvaffaqiyatlar; sanogen fikrlash emas aksincha, patogen fikrlashning ustunligi; ijtimoiy munosabatlar jarayonida talaba ishtirokining kamligi yoki cheklanganligi; o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarining rivojlantirilmaganligi va boshqalar. Shuningdek, iroda kuchining quyi darajada bo'lishi talaba atrofdagi narsalarga befarqligi, o'zi va boshqalar bilan bog'liq vazifalarni zimmalariga olmasliklari natijasida ro'y beradi. Ushbu holatni talaba shaxsida mustaqillik, chidamlilik, jasoratlilik, matonatlilik, irodaviy zo'r berish kabi xislatlarning tarkib topmaganligi bilan izohlash mumkin.

Shaxs darajasida irodaning namoyon bo'lishi iroda kuchi (maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan ixtiyoriy harakat darajasi), qat'iyatlilik (insonning uzoq vaqt davomida qiyinchiliklarni engish uchun o'z qobiliyatlarini safarbar qilish qobiliyati) kabi xususiyatlarda ifodalanadi. Chidamlilik (amalga oshirish qaroriga xalaqit beradigan harakatlar, his-tuyg'ular, fikrlarni muhokama qilish qobiliyati), energiya va boshqalar. Bu xatti-harakatlarning aksariyat qismini belgilaydigan asosiy (asosiy) irodaviy shaxsiy fazilatlaridir. Kuchli irodali shaxsga xos bo'lgan fazilatlar orasida ularning eng muhimlari ajralib turadi: mustaqillik, qat'iyatlilik, chidamlilik va o'zini tuta bilish. Talabalarda irodaning axloqiy komponenti jadal shakllantirilmogda. Iroda maktab o'quvchilarida jamiyat uchun

2. Skryabin N.D. Vozrastnee osobennosti proyavleniya smelosti.// Sportivnaya i vorastnaya psixofiziologiya. –L., 1974.

3. Shamshetova.A.K., Melibayeva.R.N., Usmanova.X.E., Xaydarov.I.O. Umumiy psixologiya, O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2018.

4. Bekmirov T.R. Shaxsning emotsional irodaviy holatlari. –Toshkent, 2002.

PEDAGOGIKA

ahamiyatli bo'lgan g'oya ta'sirida namoyon bo'ladi. Ko'pincha o'rta maktab o'quvchisida kuchli irodali faoliyat maqsadlilik xarakterini oladi. Ilmiy natijalar tahlilining ko'rsatishicha, iroda faqat tashqi xatti-harakatlarda namoyon bo'lib qolmasdan, balki insonning ortiqcha, noto'g'ri harakatlarni qilmasligida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Shunday qilib, talabalarda irodaviy harakatlar ham qo'zg'alish, ham tormozlanish jarayonlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, bunda ularning har ikkalasi bir-biriga uzluksiz ravishda ta'sir o'tkazib turadi. I.P.Pavlov aytganidek, "biz, normal kishilar doimiy ravishda ma'lum harakat va so'zlardan o'zimizni tiyib turamizku, bu katta yarim sharlarning muayyan punktlariga tormozlanish impulslari yuborish emasmi, axir". Shuning uchun har qanday irodaviy harakatning fiziologik asosida bosh miya po'stlog'ida qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining murakkab dinamik munosabati yotadi. Qo'zg'alish jarayonlari zaif, kuchsiz bo'lsa, u holda odamda hissiy irodaviy faollik susayadi, ba'zan, hatto apatiya holati vujudga keladi. Tormozlanish jarayonlarining kuchsizlanishi shunday ruhiy holatga olib keladiki, bunda shaxs o'zini o'zi nazorat qilish, og'irliklarga bardosh berish, o'zini tuta bilish, o'z xatti-harakatlarini tartibga solishga qurbi yetmay qoladi.

XULOSA

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, iroda bu insonning hayotiy qiyinchiliklarni yengib o'tishi, maqsadga erishish qobiliyatidir. Xususan, u xarakter. maqsadlilik, qat'iyatlilik, matonatlilik, jasoratlilik kabi fazilatlarida namoyon bo'ladi. Ushbu xarakter xususiyatlari ijtimoiy foydali yoki jamiyatga zid maqsadlarga erishishga yordam berishi mumkin. Shu sababli ham talabalarda irodaviy sifatlarni rivojlantirish ta'lim-tarbiya berish muhim o'rin egallaydi hamda jarayonning muhim funksiyalaridan biri sifatida belgilanadi. Maqoladan ko'rishimiz mumkinki, mazkur maqola orqali biz irodaviy sifatlarga haqida juda ko'p ma'lumotlarga ega bo'ldik. Ularning kelb chiqish jarayonlari va turlari ijobiy va salbiy xususiyatlari haqida o'rgandik. Shuningdek, irodaviy sifatlarga olimlarimiz qanday fikrda ega ekanliklari haqida ham ko'plab ma'lumot berilib o'tdik. Umumiy irodaviy faoliyatni yoki alohida faktni amalga oshirishning muhim xususiyatlaridan biri amalga oshirilayotgan harakatlarning erkin ekanligini anglashdan iboratdir. Talabalarining irodaviy harakati to'la-to'kis determinizmga, ya'ni sababiy bog'lanish qonuniga bo'ysunadi. Shu bilan birga, irodaviy faoliyatning bevosita sabablari sharoitida irodaviy harakatlarni belgilab beradigan turli-tuman hayotiy sharoitlar bo'lishi mumkin. Talabaning irodaviy faoliyati obyektiv jihatdan bog'langandir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatning kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T., 2017. –B. 45.
2. Olimov.L.Ya., Maxmudova.Z.M. Psixologicheskiye mexanizmy deviantnogo povedeniya. Psixologiya XXI veka. – Yaroslavl., 2020. –S. 125-127.
3. Shamshetova.A.K., Melibayeva R.N., Usmanova X.E., Xaydarov I.O. Umumiy psixologiya, O'quv qo'llanma. –Toshkent, 2018.
4. Bekmirov.R. Shaxsning emotsional irodaviy holatlari. –Toshkent, 2002.
5. Olimov L.Ya., Baratov Sh.R., Avezov O.R. Psixologiya nazariyasi va tarixi. Darslik. –T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2019. –B. 494.; Olimov L.Ya. Shaxs psixologiyasi, "Durdona" nashriyoti. –Buxoro, 2019.
6. Olimov.L.Ya., Maxmudova.Z.M. O'smirlarda psixologik himoya mexanizmlarining namoyon bo'lishining o'ziga xosligi. XXI asr psixologiyasi...
7. E.G'oziyev Umumiy psixologiya darslik I-kitob. Toshkent. "Universitet" 2022
8. Hamrayeva.O.F. (2023). OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARINI KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING AYRIM JIHATLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(1), 537-544.
9. O.F.Hamrayeva, Sh.Ibrohimov. (2023). PEDAGOGICAL COMMUNICATIVE COMPETENCE AND WAYS OF ITS DEVELOPMENT. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, 10(12), 760-761. Retrieved from <https://www.eijmr.org/index.php/eijmr/article/view/834>
10. O.F.Hamrayeva, & Ibrohimova Shahnoza Shuhratjon qizi. (2023). ALISHER NAVOIYNING ASARLARIDA TA'LIM TARBIYA MASALALARI. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 3(3), 49-53. Retrieved from <https://esiconf.com/index.php/TOSROWWW/article/view/599>
11. Hamroyeva.O.F. (2023). OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARINI KASBIY-KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(4), 985-991.
12. Abdixakimovich.X.K. (2023). PEDAGOGIK HAMKORLIK ASOSIDA BO'LAJAK OFITSERLARDA FUQAROLIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH. *Science and innovation*, 2(Special Issue 12), 538-541.
13. Ergasheva.N.M. (2023). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI RAHBARLARINING KOGNITIV KOMPETENTLIGI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(11), 697-702
14. O.F.Hamrayeva, & Bozorova Fotimaxon Jo'rabek qizi. (2023). OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARIDA AXLOQIY VA ESTETIK TARBIYANI RIVOJLANTIRISH. *MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS*, 7(7), 9-12. Retrieved from <https://esiconf.com/index.php/mpe/article/view/598>
15. O.F.Hamrayeva, & Nozimova Dilfuza Jahongir qizi. (2023). OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA FUQOROLIK TARBIYASINI RIVOJLANTIRISH. *THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD*, 3(3), 45-48. Retrieved from <https://esiconf.com/index.php/TOSROWWW/article/view/595>
16. file:///C:/Users/User/Downloads/mamun-2023-1-26.pdf